

Salimova Dilmira Farxodovna

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

MTTDMQTMoInstituti

MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTIDA BOLALARNI SAHNALASHTIRISH O'YINLARINI TASHKIL QILISH VA BOSHQARISH ORQALI TA'LIM-TARBIYA BERISH

Annotatsiya: Maqolada maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarining ongida, ta'lim-tarbiyasida, yuksak axloqiy sifatlarining shakllanishida teatr va sahnalashtirishning ta'siri va uning qanchalik tarixiy ahamiyatga ega ekanligi haqida su'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha yosh, teatr, sahnalashtirish, syujet-rolli o'yin, axloqiy tarbiya, tarbiyachi-pedagog, Petrushka, Kachal Polvon

Аннотация: В статье рассматриваются влияние театра и постановок на сознание, воспитание и формирование высоких нравственных качеств воспитанников дошкольных образовательных организаций и его историческое значение.

Ключевые слова: дошкольный возраст, театр, постановка, сюжетно-ролевая игра, нравственное воспитание, воспитатель-педагог, Петрушка, Качал Полвон.

Abstract: The article discusses the influence of theater and productions on the consciousness, education and formation of high moral qualities of pupils of preschool educational organizations and its historical significance.

Key words: preschool age, theater, production, role-playing game, moral education, educator, Petrushka, Kachal Polvon.

Mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Uning samarali rivoji uzluksiz ravishda ta'lim sohasiga singib borayotgan islohatlarda ham yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu kabi islohatlardan ko'zda tutilgan maqsad- yosh avlodning tarbiyasiga atroficha yondashish, maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim doirasini kengaytirish, o'quv-bilish faoliyatini rivojlantirishdanva maktab ta'limiga tayyorlashdan iboratdir. Ushbu jarayon jamiyatimizning ijtimoiy va ma'naviy rivoji borasida olib borilayotgan davlat siyosatining ustivor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu esa uzluksiz ta'lim tizimining ilk bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilariga har tamonlama yuksak alohida e'tibor berish zaruriyatini kun tartibiga olib chiqadi. Bu borada Prezidentimiz Shavkat Mirmonovich Mirziyoevning 2016-yil 29-dekabrda "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori murg'ak qalb egalarining ertamizning munosib davomchilari bo'lib kamolga yetishida alohida ahamiyat kasb etishi, shubhasiz. Qarorda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini kengaytirish, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktab ta'limiga tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta'lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish, bolalarni har tomonlama intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadi ko'rsatilgan.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarga sahnalashtirish o'yinlari orqali ta'lim-tarbiya berish dolzarb masalalardan biriga aylanib qoldi. Bu o'yinlar orqali bolalar aqlan, ruhan va ijtimoiy bilimlarga ega bo'lishlari uchun tabiiyati-pedagoglar zimmasiga katta mas'uliyat yuklamoqda.

Shunday ekan, biz manbalarga tayangan holda, dunyo sahnalashtirilgan tomoshalarining ayrimlari xususida, ularning rivojlanish tarixi, o'ziga xosligi haqida fikr yuritmoqchimiz. Sahnalashtirilgan tomoshalar komil inson tarbiyasi uchun zarur bo'lgan vosita sifatida dunyo

sivilizasiyasida mavjud. Har bir sahnalashtirilgan tomosha o'ziga xos va mos milliy harakterga ega.

Masalan Rossiyada sahnalashtirilgan tomoshalar tarixi XVIII asr so'ngi XIX asrning boshlaridan boshlanadi. O'sha davr uy sahnalashtirilgan tomoshalarni uchta tipga ajratish mumkin bo'lgan:

Birinchisi, bolalar sahnalashtirilgan tomoshalari bo'lib, ular deyarli kattalar ishtirokisiz amalga oshirilgan. Kattalar ishtiroki bunda asosan tomoshabinlar bo'lgan. Bu sahnalashtirilgan tomoshalar bolaning to'la erkinligini namoyish etgan.

Ikkinchisi, bolalar uchun sahnalashtirilgan tomoshalar bo'lib, kattalarni ham qoniqtirgan. Kattalar ro'li bunda faollashgan. Uy qo'g'irchoq sahnalari tarbiya va ta'lim maqsadida foydalanilgan, pedagogik yo'nalishga ega bo'lgan. Bolalar va kattalar o'rinlari bilan almashishgan. Bolalar ko'proq tomoshabin, kattalar ishtirokchilar va p'esa mualliflari bo'lishgan;

Uchunchisi, kattalar uchun namoyish etilgan. Uy teatrda estetika, adabiyot va dramaturgiya namoyon bo'lgan va rivojlangan. Unda siyosiy va ijtimoiy mavzularga murojaat etilgan.

XIX asr oxirida rus xalq qo'g'irchoqbozlari, teatrlashtirilgan tomoshalarining ikki xil texnikasini xuddi qoidadek bilishgan: ipdagi qo'g'irchoqlar teatri va qo'lpopli qo'g'irchoqlar teatri ("petrushka" termini bilan nomlangan). Bu ko'cha tomoshalari haqida ko'plab ma'lumotlar qolgan. Ertalabdan kechga qo'g'irchoqbozlar joydan –joyga ko'chib yurishgan. Kun bo'yi Petrushkaning sarguzashtlari tarixi haqida takroran tomoshalar namoyish etishgan. Hamma namoyishlar 20-30 daqiqadan bo'lgan. Aktyor yelkasida taxlangan ikkiga ajraladigan pardasini, qo'g'irchoqlar solingan sandig'ini olib yurgan.

AQSh professional sahnalashtirilgan tomoshalari esa 20-yillarga kelib tashkil topgan. 30-40 yillarning mashhur qo'g'irchoq o'ynatuvchilaridan biri Frenk Peris bo'lgan. U qora libosda va kalta marionetkani o'ynatgan. U qora pardaning maxsus ilgichlaridagi 5-6 nomerga mo'ljallangan qo'g'irchoqlar bilan navbatma-navbat ishlagan. Amerika sahnalashtirilgan tomoshalarining oziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat bo'lgan: birinchidan, davlat teatri yo'qligi. Ular davlatdan yordam olmaydilar; ikkinchidan, doimiy zal va imoratning yo'qligi. Har xil joylarda sayohat qilib, tomosha qo'rganlar; uchinchidan, tarkibining ozligi. Ular ikki-uch yoki bitta aktyordan iborat bo'lgan; to'rtinchidan, televideniyaning roli. Ular televideniya yordamida yashab kelishmoqda.

Hozirgi vaqtda AQSh da ko'plab mayda sahnalashtirilgan tomoshalar faoliyat ko'rsatmoqda. Ular juda qulay va jamiyatning xohlagan buyurtmasini bajara oladi, hayotiy va jamiyat uchun foydali hisoblanmoqda.

O'zbekistonda qo'g'irchoq teatri o'zining uzoq tarixiga ega. Xalqimiz orasida "qo'g'irchoq o'yin" deb nomlanadigan tomoshalarining qo'lga kiyib o'ynatiladigan va soyasi tushiriladigan turlari uzoq davrlardan beri qo'llanilib kelmoqda. Qo'g'irchoqlarning yasalishi, ularni o'ynatilishi, chodiri va sahnasining ko'rinish bezagidan, tomoshalarining mavzusi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlariga ko'ra ushbu teatr turlari bir-birlaridan farqlansada, ulardagi har bir tomoshada musiqa muhim o'rin egallashi, qo'g'irchoqbozning tomosha vaqtida qahramonlar holatini izohlagan holda tomoshabinlarga ko'rinib turishi va moslamalar orqali qahramonlarga mos tovushlarni chiqarib turishi bilan o'xshash.

O'zbek an'anaviy sahnalashtirilgan tomoshalar qahramonlaridan biri "Kachal Polvon" hisoblanadi. Kachal Polvonni asosan mehnatkash xalq vakili sifatida tomoshalar ko'rsatilgan. Polvon Kachal qo'g'irchoq'i, asosan, qo'lga kiyib o'ynatilgan. Uning bosh qismi yog'ochdan yasalgan bo'lib, egnida ko'ylak, chopon, boshida do'ppi bo'lgan. U jasur va bahodir Polvon sifatida shayton, dev va ajdardan qo'rqmaydigan qilib ko'rsatilgan. Tashqi ko'rinishi qirra burun, qalin qoshli bo'lgan. U oddiy xalq vakili sifatida tomoshalarda qatnashgan. Ushbu tomoshalar XIV asrdan boshlab xalqning e'tiboriga tushgan.

Manbalarda keltirilishicha, "Bizgacha turli ko'rinishlarda Polvon Kachal sarguzashtlari, komediyalari yetib kelgan. Komediylarining ko'pchiligi uch xil ko'rinishda bo'lgan: birida Polvon Kachalning Bichaxon ismli qizni sevib qolishi, uchrashuvi va uylanishi; ikkinchisida o'z iti tomonidan talanishi; uchinchisidagi to'qnashuv aks ettirilgan. Polvon Kachal ham kulgili holatlarga tushib qoluvchi, fe'l-atvori ham ziddiyatli qahramon. U bugun ziddiyati, ijobiy va salbiy

belgilari bilan hayotiy, xalqchildir. U hamisha hushchaqchaq holda hayotida uchragan to'siqlarni yengib o'tgan, yomon amaldor va sudxo'rlarni fosh etgan, adolat va rostgo'ylarni himoya qilgan". Ko'pgina teatr tomoshalaridan kelib chiqib, o'zbek qo'g'irchoq teatri ijtimoiy fosh etuvchi va yumoristik harakterga ega bo'lib, muhim mafkuraviy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar tasavvuriga turli xil xorijiy multfilm qahramonlaridan ko'ra o'zimizning milliy qahramonlarni singdirishimiz maqsadga muvofiq bo'lar edi. Odamlar teatrga, oddiygina o'yinbozlik yoki masxarabozlik ko'zlari bilan qarab kelishmoqda. Aslida esa, teatrning asl ma'nosi "ibratxona" yoki "ulug'lar maktabi" deganidir. Teatr sahnasi har tarafi oynaband qilingan bir uyga o'xshaydiki, unga har kim kirsas, o'zining aksini ko'radi. Fikrimizcha, teatr haqidagi ushbu ibratli so'zlar hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

Yuqoridagi fikrning isboti sifatida Abdulla Qodiriyning "O'tgan kunlar" asari asosida ishlangan o'zbek fil'mi barchamizga ma'lum. Fil'mni takror ko'rib, bir necha yillardan buyon tomosha qilib kelar ekanmiz, bu borada qo'g'irchoq tomoshasi aks etgan kichik epizodni eslatib o'tmoqchimiz. Ha, o'sha epizod ko'z oldingizda gavdalandi. Aytmoqchimizki, qo'g'irchoqbozlar tomosha bahona qo'g'irchoq vositasida elu-yurtga ozor bergan, g'am-kulfat keltirgan zamon zo'ravonlarini tanqid qilish, turmushdagi ayrim qoloqliklar, nopokliklar, ziddiyat va egriliklar ustidan kulishni o'z oldilariga maqsad qilib qo'yanlar. Bu esa o'z navbatida oddiy xalq uchun zarur bo'lgan katta ijtimoiy vazifani o'taydi.

Hozirgi vaqtda teatr san'ati orqali ta'lim-tarbiya masalalarida O'zbekiston Respublikasi Maktab va maktabgacha ta'lim vazirligi va Maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ma'lum bir tizimi ishlab chiqilgan. Ushbu o'zaro ta'sir ilmiy va amaliy konferensiyalar, seminarlar, har yili o'tkaziladigan maktabgacha ta'lim tashkilotlari o'rtasidagi tanlovlar orqali amalga oshiriladi va bizga bolalar teatr faoliyati va teatr pedagogikasi rivojlanishi to'g'risida to'liq tasavvurga ega bo'lishga imkon beradi.

O'zbekistonda bolalar teatri harakati sezilarli darajada kuchaydi. Turli xil yo'nalishdagi bolalar teatr guruhlarini shakllanmoqda. Bular an'anaviy teatr to'garaklari, professional teatrlardagi bolalar to'garaklari va maktabgacha ta'lim tashkilotlari syujet-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazlarda mashg'ulotlar o'tkazish uchun sahnalashtirilgan shakllar, yozgi sog'lomlashtirish davri mobaynida sahnalashtirish faoliyatini keltirishimiz mumkin.

Teatr san'ati, sahna muloqot vositalari axloqiy tarbiyada katta pedagogik salohiyatga ega ekanligini hisobga olib, maktabgacha ta'lim tashkilotida sahnalashtirish faoliyatining asosiy vazifasi turli xil harakterga ega bo'lgan bolalarni birlashtirish hisobga olingan edi.

O'rganilgan tajribalar shuni ko'rsatdiki, bolalarning axloqiy sifatlarini shakllantirishni, uning ijodiy potentsialini o'yin usullari orqali ko'rsatishni o'z ichiga oladigan tarbiyaviy ishning samaradorligi professional teatr bilan yaqin hamkorlik asosida shakllantirish mumkin.

Bundan ko'rinib turibdiki, bolalarni tarbiyalashda teatr san'atidan foydalanish o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan yangi bosqichga chiqdi. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, mamlakatimizda bolalar teatriga alohida e'tibor qaratilmoqda. Albatta bu bejizga emas, chunki maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyati bu o'yindan iboratdir. O'yin orqali bolalarga ta'lim –tarbiya berishda esa bizga albatta teatr yordamchi vazifani bajaradi. Ammo hozirgi davr ota-onalarining hammasi ham o'z farzandlarini teatr tomosha qilishga obora olmayaptilar. Shuning uchun ham maktabgacha ta'limga joriy qilingan "Ilk qadam" davlat o'quv dasturining syujetli-rolli o'yinlar va sahnalashtirish markazida tarbiyachilar o'yin va sahnalashtirish faoliyatlaridan keng foydalanib kelmoqdalar.

Bu borada biz teatr o'yinining xilma-xil foydali jihatlari keltiramiz:

- o'yinning ijtimoiy-madaniy maqsadga muvofiqligi;
- xalqaro aloqa funktsiyalarini bajarishi;
- o'yinda shaxsning o'zini o'zi anglashga yordam berishi;
- kommunikativ o'yinlar;
- o'yin diagnostikasi aniqlash;
- o'yinda axloqiy sifatlarini tuzatish kirita olish;

- o'yinning ko'ngilochar funktsiyani bajara olishi

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, keyingi yarim asrdan ortiq davr ichida xalq teatrlari yangicha mazmun va shakllarda rivojlandi, hamda professional teatrlar paydo bo'ldi. Masxaraboz-qiziqchilar, dorbozlar sirkning yaratilishida, qo'g'irchoq o'yinlari, ashulachi va raqqoslar yangi dramatik teatrlar paydo bo'lishiga zamin yaratdi. O'yin va teatrni bolaga dunyoni o'rgatadigan shu jumladan tabiatga xos bo'lgan tabiiy faoliyatini belgilaydigan jarayon deb hisoblash mumkin. O'yinning rivojlanishi o'z-o'zidan, intellektual kamolotga mos ravishda sodir bo'ladi, chunki uning tarkibi borgan sari ko'proq voqelikni aks ettirishga yaqinlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoev. "2017-2021 yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2016 yil 26 dekabr.
2. Salimova D.F. "Maktabgacha yoshdagi bolalarda syujetli-rolli o'yinlar vositasida axloqiy sifatlarini shakllantirishning samarali metodlari" nomli metodik qo'llanma Toshkent, 2021
3. Yusupov D. Qo'g'irchoq teatri: muammolar va yechimlar. T., 2007, J: Teatr, 2-son, b.46.
4. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 7-jild. T., 2004, 8-jild. Davlat ilmiy nashriyoti, b.117
5. Чурилова Э.Г. История кукольного театра. –М.Владос.2004, 6.86